

## HAMID OLIMJON LIRIKASIDA KO'PLIK SHAKLINING QO'LLANILISHI

JDPI o'qituvchisi Sh.Xoldorova

JDPI talabasi S.Husanova

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ko'plik shaklining qo'llanilish o'rinlari va ularning nutq vaziyatiga xoslangan shaklda uslubiy ma'no ifodalashi atroflicha misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Grammatik ko'plik, uslubiy ma'no, mubolag'a, ma'noni kuchaytirish, abstrakt otlar, uyushiq bo'lak, jamlik ma'no.

Lirik asarlar tilini tahlil qilish va o'rganish ko'p muammoli, shu bilan birga bugungi kun o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

XX asr badiiy adabiyot tilini o'rganish shu asrning 30-40 yillaridan boshlanadi. M: Hamza, Oybek, G'.G'ulom, asarlari tili o'rganildi. Hamid Olimjon asarlari tilini o'rganish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlar qatorida R.Qo'ng'urovning ishlari alohida o'rin tutadi.<sup>1</sup>

Hamid Olimjon asarlari ko'zdan kechirilganda ko'plikni ifodalovchi barcha xususiyatlarni uchratish mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'plik formasini ifodalash uchun, asosan, -lar affiksi ishlatiladi. Qadimgi turkiy tilda ham, eski o'zbek tilida ham -lar, -der, -d, -z formalari ishlatilgan.

-Lar affiksi hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'plab otlarga qo'shib ko'plikni ifodalaydi. Masalan: kitoblar. Bu o'rinda sof grammatik ko'plikni ifodalab kelmoqda. Lekin boshqa so'z turkumlariga qo'shib kelganda boshqa uslubiy ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: dadam keldilar. Ushbu misolimizda esa -lar shakli ko'plikni emas, aksincha hurmat ma'nosini ifodalashga

---

<sup>1</sup>Qo'ng'urov R. O'zbek tili stilistikasidan ochrklar. Samarqand. 1975-y.

xizmat qilmoda. Demakki, -lar miqdoriy belgiga nisbatan boshqa ma'noni ifodalash uchun xizmat qilmoqda

H. Olimjon har bir voqea-hodisani alohida ta'kidlab, ajratib ko'rsatish maqsadida uyushiq bo'laklarning har birini ko'plik ma'nosida qo'llaydi. Ushbu misralarda ham ko'plik va kelishik shakli har bir uyushiq bo'lak tarkibida kelib, ma'noni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Salom sizga, vatandoshlar, mard hamshaharlar.

Qutlug' bo'lsin hammangizga ulug' faxriy nom.

Qutlug' bo'lsin dohiy o'zi topshirgan bayroq,

**Otalardan, onalardan, do'stlardan** salom.

(Hamid Olimjon).

Agar jangda ish bermasang,

Olmasang botir deb nom,

Gitlarni yengib qaytmasang

Bergan sutlarim xarom.

(H.Olimjon)

Yoshlik, muhabbat, orzu, do'stlik kabi abstrakt otlar, asosan, birlikda qo'llanadi. Ushbu so'zlarga qo'shilgan -lar affiksi H.Olimjon asarlarida ma'noni kuchaytirish, mubolag'a, bo'rttirish kabi ma'nolarida ifodalaydi:

Bag'ringa tort, quchoqla baqir!

**Jozibalar** barchasi sening...

Hali qancha-qancha **hasratlar**,

Yosh qalbinga bo'lurlar mehmon,

Hali qancha **qayg‘ular, dardlar.**

Shiddat bilan so‘zon qilur jon.

(Hamid Olimjon. “Zaynab va Omon”)

Sanash mumkin bo‘lmasdan, o‘lchanadigan predmetlarni ko‘rsatuvchi otlar moy, un, sabzi, piyoz, qum, benzin, kerosin kabi birlikda qo‘llaniluvchi otlar ko‘plikda qo‘llanilganda predmetlar tur jihatdan farqlanadi. Bu holat Hamid Olimjon asarlarida bo‘yoqdorlikni oshirib kuchaytirish ma‘nolarida qo‘llanilgan. Masalan:

Yolg‘iz Zaynab yuragi o‘tda

Bir guvohi suvlar shildirar,

Bir guvohi yulduzlar qator,

Turar qizning diydoriga zor

(Hamid Olimjon. “Zaynab va Omon”)

Atoqli otlar, odatda, birlikda qo‘llaniladi. Bunday otlarning ko‘plik affiksini olishi haqida R.Qo‘ng‘urov quyidagilarni bayon etadi: “Ular ko‘plik affiksini olganda ma‘lum affiks qabul qilgan so‘z orqali ifodalangan joy yoki kishining birdan ortiqligi emas, nalki boshqa ma‘nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi”.<sup>2</sup> Bu borada prof. A.Q.Borovkov quyidagilarni bayon etadi: “Atoqli otlar, turdosh otlardan farq qilgan o‘laroq ko‘plik sonda ajoyib xususiyatlarga ega, sonlar bilan birika olmaydi. Atoqli otlarga qo‘shilgan ko‘plik formalari doimo o‘ziga xos ma‘no kasb etadi. Maslan: Salimalar keldi – Salima o‘z bola-chaqalari bilan keldi yoki Salima uy-ichi bilan keldi va hokazo.”<sup>3</sup> Ushbu mulohazalarni isboti uchun H.Olimjonning asarlaridan misollar keltiramiz:

Har bir kunda bir buyuk mazmun,

---

<sup>2</sup>Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili stilistikasidan ocherklar. Samarqand, 1975. 36-bet.

<sup>3</sup>A.Q.Borovkov. O‘zbekiskiy-ruskiy slovar. Moskva. 1959 y. 684-bet.

Quyosh to‘kar boshlaringa zar.

Tojixonlar tongi boshlansin

Farg‘onadan Amurga qadar...

(Hamid Olimjon “Do‘stimga”).

Sho‘ro sharqin

Ko‘kka chiqqan

Tepalarda

**Qo‘shermatlar**

Olchoqlarni

Parchalab

Yiqib,

**Denikinlar,**

Qochoqlarni,

Yov

Bosganday.

(Hamid Olimjon. “Mudofaa kunlarida”)

Ma’lumki, insonlarda birdan ortiq bo‘lmaydigan a’zolar mavjud. Ularning xatti-harakatlari haqida so‘z borganda doimo birlikda qo‘llanilishi nazarda tutiladi. Masalan: bosh, tish, burun, yurak kabi. Bunday so‘zlar birlikda qo‘llanilganida neytral qiymatga ega bo‘lsa, ko‘plikda kelganda u baholash otenkasiga ega bo‘ladi. Hamid Olimjon asarlarida xuddi shu holatni ko‘rish mumkin:

Men ko‘rdim eng go‘zal bahor paytini,

Yaproqni ko‘kartirgan u tonglaringni.

Mening boshlarimga tegib o‘tdilar.

Guldasta qo‘llari butoqlarining

(H.Olimjon “O‘zbekiston xotirasi”).

So‘rog‘im shul, qora ko‘zlarning

Yo‘qolmasin sira vafosi.

Boshlaringa tushmasin hech qachon

Shu ko‘zlarning hijron jafosi.

(H.Olimjon “Xayrlashuv”).

Yo‘lga solur tutar qo‘limdan,

Boshimdadir sening xating;

Yuraklarda yonar surating,

Go‘zalliging, guling, jamoling.

(H.Olimjon “Bahor”).

(Hamid Olimjon)

Misollardan ko‘rinadiki, keltirilganlarning hammasi o‘zbek adabiy tili uchun normal hodisa sanaladi.

Denikinlar,

Kolchaklarni,

Yov

Bosganday!

(Hamid Olimjon. Mudofaa kunlarida)

Misollardan ko‘rinadiki, keltirilganlarning hammasi o‘zbek adabiy tili uchun norma hodisasi sanaladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamid Olimjon tanlangan asarlari. 1.2.3.tom
- 2.1Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili stilistikasidan ochrklar. Samarqand. 1975-y.
- 3.1Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili stilistikasidan ocherklar. Samarqand, 1975. 36-bet.
4. 1A.Q.Borovkov. O‘zbekiskiy-ruskiy slovar. Moskva. 1959 y. 684-bet.